

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YAGONA IJTIMOY TO'LOV HISOBINING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI

*Abdumutalov Ahmadjon Isroiljon o'g'li*

*Andijon Davlat Texnika Instituti*

*Buxgalteriya hisobi va auditi yo'nalishi 4-kurs talabasi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida yagona ijtimoiy to'lov hisobining me'yoriy-huquqiy asoslari, ularni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari hamda buxgalteriya hisobi standartlarining ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, yagona ijtimoiy to'lovni hisoblash va hisobga olishning amaldagi tartibi, ushbu jarayonda qo'llanilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar hamda sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmuni tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida yagona ijtimoiy to'lov hisobini yuritishning huquqiy asoslari va ularning korxonalar moliyaviy faoliyatidagi o'rni baholangan.

**Kalit so'zlar:** yagona ijtimoiy to'lov, ijtimoiy soliq, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, buxgalteriya hisobi, mehnatga haq to'lash, ijtimoiy ajratmalar, soliq hisobi, davlat byudjeti, majburiy to'lovlar, korxonalar xarajatlari, Buxgalteriya hisobi milliy standartlari, schyotlar rejasi, ijtimoiy himoya tizimi, soliq siyosati, moliyaviy hisobot.

**Kirish.** Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarning izchil amalga oshirilishi natijasida soliqqa tortish tizimini takomillashtirish, davlat byudjeti daromadlarini barqaror shakllantirish hamda aholini ijtimoiy himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirishda ijtimoiy to'lovlar tizimi, xususan, yagona ijtimoiy to'lov (ijtimoiy soliq) muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur to'lov davlatning pensiya ta'minoti, ijtimoiy sug'urta va boshqa ijtimoiy dasturlarini moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi.

Korxonalarda yagona ijtimoiy to'lovni to'g'ri hisoblash va o'z vaqtida to'lash nafaqat soliq intizomini ta'minlaydi, balki xodimlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga ham xizmat qiladi. Shu sababli mazkur to'lovning hisobini yuritish va nazorat qilish jarayonlari amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi O'zbekiston Respublikasida yagona ijtimoiy to'lov hisobining me'yoriy-huquqiy asoslarini o'rganish, ularni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarining mazmunini tahlil qilish hamda korxonalarda ushbu to'lov hisobini yuritishning amaliy jihatlarini yoritishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasida yagona ijtimoiy to'lov hisobi davlat tomonidan qabul qilingan qonunlar, kodekslar va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinadi. Ushbu hujjatlar korxonalarda mehnatga haq to'lash bilan bog'liq xarajatlarni

hisobga olish, ijtimoiy ajratmalarni hisoblash hamda davlat byudjeti bilan hisob-kitoblarni yuritishning huquqiy asosini yaratadi [7].

Yagona ijtimoiy to'lovning huquqiy asoslarini shakllantirishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muhim ahamiyatga ega. Konstitutsiyada fuqarolarning mehnat qilish, ijtimoiy ta'minot olish hamda davlat tomonidan ijtimoiy himoyalani huquqlari belgilab berilgan bo'lib, ushbu normalar ijtimoiy sug'urta tizimining huquqiy poydevorini tashkil etadi [1].

Korxonalarda ijtimoiy soliqni hisoblash va to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan tartibga solinadi. Soliq kodeksida ijtimoiy soliqning iqtisodiy mohiyati, uni hisoblash va undirish mexanizmi, soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlari, soliq bazasini aniqlash tartibi hamda amaldagi soliq stavkalari batafsil belgilab qo'yilgan. Xususan, ijtimoiy soliqni to'lovchilar sifatida yuridik shaxslar, ularning alohida bo'linmalari hamda ayrim hollarda jismoniy shaxslar e'tirof etiladi. Soliq bazasi esa xodimlarga mehnatga haq to'lash bilan bog'liq barcha daromadlar va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa to'lovlar asosida shakllantiriladi.

Soliq kodeksida ijtimoiy soliq summasini hisoblashning yagona tartibi belgilangan bo'lib, unga muvofiq korxonalar har oy yakunida xodimlarga hisoblangan mehnat haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar summasidan amaldagi stavka bo'yicha soliqni hisoblab chiqadilar. Hisoblangan soliq summasi belgilangan muddatlarda davlat byudjetiga o'tkazilishi lozim. Shu bilan birga, korxonalar ijtimoiy soliq bo'yicha tegishli soliq hisobotlarini shakllantirish va vakolatli organlarga taqdim etish majburiyatiga ega [2].

Ijtimoiy soliq hisobining to'g'ri yuritilishi korxonaning moliyaviy intizomi va hisob siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu soliq orqali davlat tomonidan pensiya ta'minoti, ijtimoiy sug'urta, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik bo'yicha nafaqalar hamda boshqa ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish uchun zarur mablag'lar shakllantiriladi. Shu sababli Soliq kodeksida ijtimoiy soliqni hisoblash va to'lash bilan bog'liq munosabatlar qat'iy tartibga solingan bo'lib, mazkur kodeks korxonalarda ijtimoiy soliq hisobini tashkil etish va yuritishning asosiy me'yoriy-huquqiy manbasi hisoblanadi.

Mehnatga haq to'lash bilan bog'liq munosabatlar esa O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi asosida tartibga solinadi. Mehnat kodeksi ish beruvchi va xodim o'rtasidagi mehnat shartnomasi asosidagi munosabatlarni tartibga soladi, shu jumladan xodimlarga to'lanadigan ish haqi, kompensatsiyalar, qo'shimcha to'lovlar va boshqa mehnatga oid moliyaviy majburiyatlarni belgilaydi. Kodeks xodimlarning mehnat haqi tarkibini aniqlash, uning minimal darajasini belgilash, ish haqi va unga tenglashtirilgan boshqa to'lovlarni o'z vaqtida va to'liq amalga oshirishni nazarda tutadi.

Mazkur kodeksning muhim jihatlaridan biri shundaki, u ijtimoiy soliqni hisoblash bazasini shakllantirishda asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Ya'ni, xodimlarga

to'lanadigan ish haqi, bonuslar, kompensatsiyalar, qo'shimcha ish haqi va boshqa moddiy nafaqalar ijtimoiy soliqni hisoblash uchun soliq bazasini tashkil etadi. Shu bilan birga, Mehnat kodeksi xodimlarning mehnatga bo'lgan huquqlarini himoya qilish, ish haqi to'lash muddatlari va tartibini belgilash orqali soliq hisob-kitobining aniqligi va qonuniyligini ta'minlaydi [3].

Korxonalarda yagona ijtimoiy to'lov hisobini yuritishda "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun va Buxgalteriya hisobi milliy standartlari alohida o'rin tutadi. Ushbu hujjatlar mehnatga haq to'lash xarajatlari va ular bo'yicha majburiyatlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini belgilaydi [4].

Yagona ijtimoiy to'lov hisobining muhim jihatlaridan biri bu buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirilishidir. Nizomning 43-bandiga muvofiq yagona ijtimoiy to'lov summalari xarajat schyotlarining debetida va 6520 - "Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar" schyotining kreditida aks ettiriladi [8].

Bu buxgalteriya o'tkazmasi korxonalarda ijtimoiy ajratmalar hisobini yuritishda muhim metodologik asos hisoblanadi. Mazkur schyotlar orqali korxonaning davlat maqsadli jamg'armalari oldidagi majburiyatlari hisobga olinadi va nazorat qilinadi.

Yagona ijtimoiy to'lov tizimida davlat soliq xizmati organlari ham muhim nazorat funksiyasini bajaradi. Nizomga ko'ra davlat soliq organlari ijtimoiy to'lovlarning to'g'ri hisoblanishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazorat olib boradi. Qonunchilik talablarini buzgan korxonalariga nisbatan moliyaviy jarimalar va javobgarlik choralari qo'llaniladi.

### 1-jadval.

#### Yagona ijtimoiy to'lov hisobini tartibga soluvchi asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlar.

Me'yoriy-huquqiy hujjat	Asosiy mazmuni
O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi	Fuqarolarning mehnat va ijtimoiy himoya huquqlarini belgilaydi
Soliq kodeksi	Soliqlar va majburiy to'lovlarni hisoblash tartibini belgilaydi
Mehnat kodeksi	Ish haqi va mehnat munosabatlarini tartibga soladi
"Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun	Buxgalteriya hisobini yuritish asoslarini belgilaydi

Yagona ijtimoiy to'lov tizimini tartibga soluvchi muhim me'yoriy hujjatlardan biri "Yagona ijtimoiy to'lovni taqsimlash, shuningdek xarajatlarni qoplash bo'yicha summalarning to'lanishini hamda tashkilotlar tomonidan pensiya, nafaqa va boshqa to'lovlar uchun xarajatlar amalga oshirilishi tartibi to'g'risida"gi Nizom hisoblanadi. Mazkur Nizomga ko'ra yagona ijtimoiy to'lovni hisoblash korxonalar tomonidan

hisobot oyida hisoblangan ish haqi fondidan kelib chiqib mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

Nizomning 3-bandiga muvofiq yagona ijtimoiy to'lov hisobot oyi uchun hisoblangan ish haqi fondi va belgilangan stavkalar asosida aniqlanadi. Ushbu summalar Pensiya jamg'armasi, Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi hamda kasaba uyushmalari o'rtasida taqsimlanadi. Mazkur Nizomda yagona ijtimoiy to'lov mablag'larining taqsimlanish mexanizmi ham batafsil belgilangan. Jumladan, Yagona g'azna hisobvarag'iga kelib tushgan mablag'lar avtomatik tarzda Pensiya jamg'armasi, Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi hamda kasaba uyushmalari o'rtasida taqsimlanadi. Bu tizim mablag'larning shaffof harakatini ta'minlash bilan birga, davlat moliyaviy nazoratini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Yagona ijtimoiy to'lov mablag'larining asosiy qismi Pensiya jamg'armasiga yo'naltiriladi. Pensiya jamg'armasi mablag'lari fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti, nogironlik pensiyalari, boquvchisini yo'qotganlik nafaqalari hamda boshqa ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirishga sarflanadi. Shu sababli yagona ijtimoiy to'lov davlat ijtimoiy siyosatining eng muhim moliyaviy instrumentlaridan biri hisoblanadi.

**2-jadval.**

**Elektron hisob tizimlarining afzalliklari.**

<b>Ko'rsatkich</b>	<b>An'anaviy usul</b>	<b>Elektron tizim</b>
Hisobot tayyorlash	Qo'lda	Avtomatik
Hisoblash aniqligi	O'rtacha	Yuqori
Vaqt sarfi	Ko'p	Kam
Nazorat imkoniyati	Cheklangan	Keng

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda soliq tizimini takomillashtirish va raqamlashtirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezident farmonlari va qarorlari asosida soliq ma'murchiligi soddalashtirilmoqda, elektron hisobot tizimlari keng joriy etilmoqda hamda soliq nazorati mexanizmlari takomillashtirilmoqda [5; 6].

Korxonalarda ijtimoiy soliq bo'yicha hisob-kitoblar zamonaviy dasturiy vositalar yordamida yuritilmoqda. Bu esa hisob-kitoblarning aniqligini oshirish, hisobotlarni tezkor tayyorlash va inson omili bilan bog'liq xatolarni kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Yagona ijtimoiy to'lov hisobi bo'yicha amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar korxonalarda ijtimoiy ajratmalarni hisoblash va hisobga olishning yagona tizimini shakllantirib, moliyaviy intizom hamda ijtimoiy himoya tizimining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlamoqda [9].

**Xulosa.** O‘zbekiston Respublikasida yagona ijtimoiy to‘lov hisobining me‘yoriy-huquqiy asoslari korxonalarda mehnatga haq to‘lash bilan bog‘liq xarajatlarni to‘g‘ri hisobga olish, davlat oldidagi majburiyatlarni o‘z vaqtida bajarish hamda ijtimoiy himoya tizimini moliyaviy jihatdan ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yagona ijtimoiy to‘lov hisobi O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni hamda buxgalteriya hisobi milliy standartlari asosida tartibga solinishi aniqlandi. Ushbu me‘yoriy-huquqiy hujjatlar korxonalarda ijtimoiy soliqni hisoblash, hisobga olish va hisobotlarda aks ettirishning yagona tartibini belgilab beradi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida elektron soliq tizimlarining joriy etilishi yagona ijtimoiy to‘lov hisobining shaffofligi va aniqligini oshirishga xizmat qilmoqda. Natijada korxonalarda hisob-kitoblar sifati yaxshilanib, inson omili bilan bog‘liq xatolar kamaymoqda.

Kelgusida yagona ijtimoiy to‘lov hisobini yanada takomillashtirish uchun buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish, elektron hisobot tizimlaridan foydalanish ko‘lamini kengaytirish va amaldagi me‘yoriy-huquqiy bazani xalqaro tajribalar asosida rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. - Toshkent, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. - Toshkent, 2023.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni. - Toshkent, 2016.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni. - Toshkent, 2022.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-son Farmoni. - Toshkent, 2023.
7. Vahobov A.V., Ibodullayev E.A. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. - Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021.
8. Do‘smuratov R.D. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.
9. To‘xliyev N., Abdullayev Yo. Korxonalarda buxgalteriya hisobi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2020.
10. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) - O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi.
11. [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz) - O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi.
12. [www.imv.uz](http://www.imv.uz) - O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.
13. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) - O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi.